



## O'ZBEKISTONDA ISLOM IQTISODIYOTI TAMOYILLARI ASOSIDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING HUQUQIY JIHATLARI

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Makroiqtisodiy tahlil va proqnozlashtirish" kafedrasi tayanch doktoranti

email: [irgashevagulbahor77@gmail.com](mailto:irgashevagulbahor77@gmail.com)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 8

DOI:[https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1\\_iss8/a10](https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a10)

### ABSTRACT

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O'zbekistonda islam moliyasi, shuningdek, islamiy investitsiyalarni mamlakatga jalb etishning huquqiy jihatlari va joriy holati tahlil qilish, bu boradagi loyihalarni amalga oshirish yo'lidagi to'siqlar va yechimlarni o'rganish, shuningdek, islam moliya tizimini rivojlanish yo'lidagi mayjud to'siqlarni bartaraf etish va bu borada chora-tadbirlarni ishlab chiqishda tavsiya va xulosalar berishdan iborat.

### KEYWORDS

*Islomiy moliya sanoati, islomiy investitsiyalar, islomiy moliya xizmatlari va mahsulotlari, me'yoriy-huquqiy baza, ITB, XSRIK, XISMK.*

### Kirish (Introduction/Введение).

Bugungi kunda jahonda islomiy moliya tarmog'i jadal sur'atda rivojlanib borayotgan va ishonchli, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Dunyo bo'ylab islom tamoyillariga mos keladigan 600 dan ortiq bank va 2000 dan ortiq investitsiya fondlari mayjud. Xususiy sektorni rivojlanantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (XSRIK) va Refinitivning 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, 2015-2022-yillar oralig'ida islom moliyaviy aktivlari 2.7 trillion AQSH dollardan qariyb 4.5 trillion AQSH dollargacha o'sdi (yiligi o'rtacha 15-20 % ga o'sib bormoqda) va 2027-yilga kelib taxminan 6,7 trillion AQSH dollarga yetishi proqnoz qilindi [1]. Bundan ko'rish mumkinki, Islom moliyasi jahon moliya sanoati ichida eng tez rivojlanib borayotgan soha sifatida ko'rilib, nafaqat muslimmon mamlakatlarda shu bilan birgalikda muslimmon bo'lmagan mamlakatlarda ham ushbu sohaga qiziqish yuqoriligi bilan izohlanadi. Shuningdek, O'zbekistonda ham islam moliyasiga qiziqish ancha yuqoridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) tashqi ishlari vazirlari kengashining 43-sessiyasi ochilish marosimida so'zlagan nutqida quydigilarni ta'kidlagan edi: "Islom olami ulkan iqtisodi, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy tarqaqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu provard natijada boshqacha barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi" [2]. Bundan xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda ham islam moliyasi rivojlanantirish va buning uchun eng avvalo, qonunchilikni islam moliyasi talablariga moslashtirish lozim.

Ushbu tadqiqot ishimizda O'zbekistonda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy jihatlari yoritilib, amaliyotda foydalanish holatlari tahlil qilinadi.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Анализ литературы).

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bugungi kunda islom moliyasi butun dunyoda juda tez sur'atda rivojlanib borayotgan jahon moliya

sanoatining yetakchi qismi sifatida e'tirof etilib, eng ilg'or soha sifatida nafaqat muslimmon mamlakatlari, balki muslimmon bo'lmagan mamlakatlar ham o'z moliya sanoatlarda qo'llamoqdalar.

Islom moliyasiga ko'plab xorijiy, MDH mamlakatlari, shu bilan birgalikda, o'zbek olimlari va tadqiqotchilarini ham bu sohaga doir o'z izlanishlarini olib borishgan va uning natijalarini o'z tadqiqotlarda bayon etishgan. Xususan, xorijlik islom moliyasiga doir tadqiqot ishlarni olib borgan olimlardan biri Muhammad Ayub islom moliyasi sohasiga doir o'z izlanishlarini olib borib, bugungi kunda uning tadqiqot ishlardan ko'plab o'quvchilar, tadqiqotchilar foydalanih kelishmoqda. Ayniqsa, uning "Understanding Islamic Finance" nomli tadqiqot ishida islom moliyasi o'zi nimaligi, shuningdek, islomiy investitsiyalar va ularning mamlakatlar iqtisodiyotini rivojidagi roli tushuntirib berilgan [3]. Bundan tashqari, Hans Visser o'zining "Islamic Finance: Principles and Practice" nomli tadqiqot ishida esa islom moliyasingin mamlakatlar rivojidagi o'rni, bu sohaning rivojlanishdagi bosqichlari, islom banklari va an'anaviy banklar o'rtasida farqli jihatlari, shuningdek, islomiy moliyalashtirish vositalari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan [4].

Shunindek, MDH mamlakatlari olimlari orasida ham bu sohaga doir qiziqishlar ancha yuqori bo'lib, o'z tadqiqot ishlarni olib borishgan. Xususan, R.I.Bekkin "Исламская экономическая модель и современность" nomli kitobini yozib, o'quvchilar uchun bu sohani o'rganishlari uchun juda katta hissa qo'shgan. U kitobida yuqori savyiadagi zamонави innovatsion tadqiqot, usul va uslublaridan foydalangan holda ushbu sohani endi o'rganishni boshlagan o'quchchi uchun juda tushunarli tarzda yozgan. Ushbu kitobda islom moliyasingining yuzaga kelish tarixi va sababları, islom banklari, shuningdek, islomiy moliyalashtirish vositalari mushoraka, mudoraba, murobaha, ijara, istisno', sukuk, takoful va salam haqida to'liq yoritib bergan [5]. Bundan tashqari, V.V. Antropov o'zining "Исламские финансовые глобальной экономике: современные тенденции перспективы. Причины появления исламских финансовых" tadqiqot ishida islom moliyasi sektoriga bugungi kunda yuqori darajada ko'plab mamlakatlar tomonidan qiziqish bildirilib, foydalanih kelayotgani, ushbu sohaning mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhimpliligini yoritib bergan [6].

Maxsus son 2024

Shuning bilan birga bizning mamlakatimizda ham bu sohada tadqiqotlari va izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning ko'payib borayotganligi tahsinga sazovordir. Ular o'zlarining izlanishlarining natijalarini doimo e'lon qilib borishi bu sohaga qiziqish bildirayotgan yangi o'quvchilar uchun ayni muddao bo'lib, ushga sektor haqida ko'proq va mukammalroq ma'lumotlarga ega bo'lib, bunday tadqiqot ishlarning e'lon qilib borilishi o'quvchi va tadqiqotchilar uchun manfaatlil bo'ladi. Xususan, Ruhiddin Zayniddinov "Islamic investment products: characteristics and development prospects" nomli tadqiqotida O'zbekistonda investitsiya loyihamalarini islamiy moliyalashtirish samaradorligini oshirish borasida o'z tadqiqot ishlarda bu sohani mamlakatimizda rivojlantirishga doir o'zining xulosva tavsiyalarini ishlab chiqqan [7]. Bundan tashqari, G.S.Irgashevanning "Comparative analysis of ijarah (islamic leasing) and traditional leasing" nomli tadqiqotida islamiy moliyalashtirishning mamlakatlarning rivojigidagi ahamiyati va uning afzalliklari, shuningdek, islamiy moliyalashtirish instrumentlaridan biri hisoblangan ijara haqida ma'lumotlar berilib, shu bilan birga, islamiy va an'anaviy lizingning farqli jihatlari yoritib berilgan [8].

Ilmiy tadqiqotimizda foydalanilgan yondashuv va obyekt yuqorida nomralari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlardan farqlanadi.

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).** Maqolamizni ilmiy jihatdan keng darajada tahlil qilishda sifat yondashuvidan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik va qiyoschi tahlil usllaridan ham samarali foydalanildi.

**Tahlillar (Analysis/ Анализ).** O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng ko'p aholiga ega davlat bo'lib, doimiy aholisi 2024-yil 16-aprel holatiga ko'ra 36,990,058 kishini tashkil etdi[9]. Hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakat aholisining aksariyati musulmonlar bo'lib, 88 foizdan 96 foizgacha o'zgarib turadi [10]. Mintaqadagi eng ko'p musulmon aholiga ega bo'lishiga qaramay, O'zbekiston islam banki va moliyasini mamlakatga joriy etish bo'yicha sa'y-harakatlarini Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga qaraganda ancha kechroq boshlagan. MDH mamlakatlarida islam moliysi 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin tashkil etila boshladi. Markaziy Osiyo mintaqasi, shuningdek, Kavkaz mintaqasidagi Ozarbayjon davlati aholisining ko'pchiligi musulmonlar bo'lgan respublikalar hisoblanadi. Islomi moliya infratuzilmasini mamlakatlarda rivojlantirish va eng yirik islam moliya institutidan moliyaviy yordam olish uchun ushbu davlatlar Islom taraqqiyot banki (ITB) guruhiga qo'shilishni boshladilar. Ozarbayjon 1992-yilda birinchi bo'lib ITBga qo'shilgan bo'lsa, 1993-1996-yillarda mobaynida Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston va Tojikiston birin-kin a'zolikka qabul qilindilar. O'zbekiston esa ITBga oxirgi bo'lib a'zo bo'lgan. Islom taraqqiyot bankingin mintaqaviy ofisi Qozog'istonning Olmaota shahrida tashkil etilgan bo'lib, u mintaqada islam moliya sanoati rivojanishiga tez yordam bergan [11].

Islom taraqqiyot bankingin Olmaota shahrida mintaqaviy vakolatxonasi tashkil etilgandan so'ng, mintaqada islam bank ishi va moliysi faollashdi. Hukumat organlari me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'zgartirishga kirishdilar, sarmoyadorlar islam banklari, lizing va takoful kompaniyalarini ochdilar. Davlatlar yangi imkoniyatlarni ochish uchun suveren sukuk (islomiy obligatsiyalar) masalasini ko'rib chiqdilar. Mijozlarning islamiy moliya mahsulotlariga ortib borayotgan ehtiyojiga javoban Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlar hukumatlari o'zlarining davlat qonunchilikiga sezilarli o'zgarishlar kiritdilar. Bundan tashqari, Islom taraqqiyot banki (ITB) va uning Xalqaro Islom Savdo Moliya Korporatsiyasi (XISMK) va Xususiy Sektorni Rivojlantirish Islom Korporatsiyasi (XSRIK) kabi guruh a'zolari mintaqadagi yangi sanoatni qo'llab-quvvatladilar.

MDH mamlakatlarining o'n bittasidan beshtasida turli darajada islam moliya sanoatini yoki islam bank-moliya tizimini joriy etish bo'yicha qonunchilik bazasini rivojlantirmoqda – bular Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondir. O'zbekiston hali bu yo'nalihsda rivojanishning dastlabki bosqichida bo'lib, Qozog'iston va Qirg'iziston hukumatlari ushbu moliyaviy segmentning istiqbollarini ko'rib, qonunchilikni islam moliyasi talablariga moslashtirdilar.

Islam moliya- sheriklikka, aktivlar bilan ta'minlanganlikka asoslangan axloqiy, barqaror, ekologik va ijtimoiy ma'suliyatli moliya bo'lgani bois, uning iqtisodiyot, jamiyat, atrof-muhit uchun hech qanday tahdidiy alomatlari yo'q, aksinchal, an'anaviy moliya tizimidan ko'ra shaffof va moliyalashtirish obyekti aniq va ravshan bo'lgan moliya

tizimidir. Uni rivojlantirishimiz kerak [12], lekin, O'zbekistonda islam moliyasini rivojlantirish salohiyati jihatidan yuqoriligiga qaramasdan, bu sohada qilingan ishlar qilinishi shart bo'lgan ishlardan ancha kam ekanligini xalqaro ekspertlar ta'kidlashmoqda.

Mamlakatimizda islamiy moliyalashtirish ishlari 2004-yilda boshlanib, bu O'zbekistonning 2003-yilning sentabr oyida Olmaotadagi bankning yillik yig'ilishi doirasida Islom taraqqiyot bankingin (ITB) a'zoligiga qo'shilgani bilan bog'liq bo'lib, 13,4 million ID kapitali bilan 55-a'zo bo'ldi, bu Islom taraqqiyot banking umumiy kapitalidagi 0,03% ulushini tashkil qiladi. Qo'shnilar bilan solishtirganda, O'zbekiston 37 million musulmon aholisi bo'lishiga qaramay, islam moliyasini rivojlantirishda ortda qolmoqda. Mamlakat ITBga a'zo bo'lganidan boshlab, 2,5 milliard dollarga yaqin mablag' oldi. Bugungi kunga qadar mamlakatimiz bo'yab 103 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, shundan 49 tasi yakunlangan, 54 tasi esa davom etmoqda. Olingan mablag'larning asosiy qismi ta'lif, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, elektroenergetika va qurilish sohalariga yo'naltirildi [13].

Mamlakatimizdagi xususiy sektor vakillari islamiy moliya mahsulotlarining ba'zi turlariga qiziqish bildirib, bu instrumentlardan foydalanish borasida taklif kiritayotgan bo'lishsada, mamlakatimizda islam moliyasini joriy qilish bo'yicha huquqiy asos ya'ni qonunchilikning yaratilishi oqsayıpti.

Islamiy moliya mahsulotlaridan mamlakat iqtisodiy subyektlarining foydalanishi uchun qonunning mayjud bo'lishi shart hisoblanib, afsuski, O'zbekiston Respublikasida islamiy moliyalashtirishga doir alohida qonunchilik mayjud emas.

Islom taraqqiyot banki (ITB) va Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islam korporatsiyasi (XSRIK) tomonidan mamlakatimizda moliyalashtirilayotgan loyihamalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustdagagi 371-soni qarori va 2004-yil 21-dekabrdagi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli boshqa qarorlariga asosan amalga oshirilgan.

Shuningdek, 2019-yil 5-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4224- sonli "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi fondlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi mamlakatimizning Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishda muhim rol o'yashiga sabab bo'ldi. Mazkur qarorga ko'ra, O'zbekiston hamda Islom taraqqiyot banki (ITB) o'rtaisdagi uzoq muddati sherikchilikning muhim yo'nalihsulari belgilab olindi va asosiy yo'nalihsalar quyidagilardan iboratdir:

-enegetika tizimi, yo'l-transport sohalari, kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, sog'liqni saqlash, uy-joy qurilishi, ta'lif tizimini yuksaltirish, bank-moliya tizimi, kichik va xususiy tadbirkorlik sektorini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini, shuningdek, hududlarini kompleks rivojlantirishning boshqa yo'nalihsulari bo'yicha loyihamarni amalga oshirishga Islom taraqqiyot banki guruhining, shu jumladan, Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islam korporatsiyasi (XSRIK), Xalqaro islam savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK), Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash korporatsiyasi (IEKSIK), Islom tadqiqot va ta'lif instituti mablag'larini jaib qilish;

-bank sektorida islamiy moliyalashtirish asoslarini joriy etish, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf jamg'armalarini tashkil etish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va O'zbekistonda tatbiq qilish;

-respublika tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining investisiya loyihamarini qo'llab-quvvatlash, ularning eksport imkoniyatlarini mustahkamlash uchun Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha islam korporatsiyasi (XSRIK), Xalqaro islam savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) va Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash korporatsiyasi (IEKSIK) moliyaviy resurslari va mahsulotlarini faol jaib etish;

-O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi salohiyatini oshirish;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzuridagi Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash [14].

E'tirof etish joizki, islam moliyasini joriy qilish O'zbekiston moliya tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi. Bu esa, o'z navbatida, ITB bilan islam moliyasining qonunchilik asoslarini yaratishda hamkorlik qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ushbu

Maxsus son 2024

hamkorlikni amalga oshirishda ITBning Islom biznesi va moliyalarini rivojlanirish jamg'armasi muhim rol o'yinaydi. Mazkur Jamg'arma 2010-yil 2-fevralda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi Rossiya Federatsiyasi va MDH mamlakatlarida islom biznesi va moliyalarini rivojlanishi va takomillashishiga ko'maklashish hisoblanadi [15].

Islom taraqqiyot bankingin 46 yillik yig'ilishida O'zbekiston Respublikasida islom banki va moliya sohasining huquqiy asoslarini ishlab chiqish va uni qo'llab-quvvatlash maqsadida 265 ming AQSH dollarri miqdorida Islom taraqqiyot banki tomonidan texnik yordam uchun grant ajratilishi belgilandi. Bunday sa'y-harakatlarning natijasi sifatida, 2020-yil oxiriga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasida islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish uchun huquqiy baza yaratish vaqtiga kelganini tan olgan edi [16].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 19-dekabrdagi "Iqtisodiyotga islomiy moliyalashtirishni joriy etish to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqishga oid farmoyishi e'lon qilindi. Shundan so'ng, islomiy moliyalashtirish tizimining huquqiy bazasini yaratish bo'yicha keng ko'lamli sa'y-harakatlar boshlandi. Jumladan, 2022-yilning 20-aprelida "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalash faoliyatni to'g'risida"gi O'RQ-765-son qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunchilikdagi o'zgarishlar Islom moliyasi mamlakatimizda huquqiy jihatdan ma'lum pog'onaga chiqayotganligini bildirsada, ammo islomiy moliyaviy xizmatlarini taklif qilish nobank va mikromoliyalash tashkilotlari tomonidangina taklif qilinish cheklovlari mamlakatimizda Islom moliyasingining rivojlanishi uchun zaruriy yechim emasligini ta'kidlash joiz. Negaki, Nobank va mikromoliyalash tashkilotlarining aktiv hajmi bo'yicha O'zbekistonning moliya sektoridagi ulushi atigi 0,29 foizni tashkil etadi, xolos.

#### **Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).**

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarimizni keltirishimiz mumkin, butun dunyoda islom moliyasi shiddat bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda ham ushbu sohaga qiziqish yuqori. Islom moliyasi mamlakatimizda nafaqat biznes egalari uchun, shu bilan birga jismoniy shaxslar uchun zarur soha hisoblanadi, negaki, O'zbekiston aholisining 90 foizidan ortig'i islom diniga e'tiqod qiladi. 2004-yildan 2022-yilgacha ya'ni 19 yil mobaynida O'zbekistonda bir qator investitsion loyihalarni islomiy moliyalashtirilib, ushbu loyihalarning umumiyy qiyomi 2,9 milliard AQSH dollaridan ziyoddir. Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning asosiy qismini davlat investitsion loyihalari tashkil etib, ushbu investitsion loyihalarning ayrimlari xususiy soha vakillariga

murobaha islomiy moliyalashtirish amaliyotlari sifatida taqdim etilib, ushbu loyihalar Xususiy sektorini rivojlanirish bo'yicha islom korporatsiyasi tomonidan amalga oshirilgan. Ammo, ushbu amalga oshirilayotgan loyihalarga qaramasdan, xususiy sektorning islomiy moliyalashtirishga bo'lgan talablar hali to'laligicha qondirilmagan. Bundagi eng katta muammo, albatta, tegishli meyoriy-huquqiy bazaning yo'qligi va zarur bo'lgan infratuzilmaning mavjud emaslidir.

O'zbekistonda islomiy moliya mahsulotlarini islom bank-moliya tizimi bo'yicha tegishli qonunlar ishlab chiqilishi va qabul qilinishini kutmasdan investitsiya kompaniyalari tashkil qilib islom moliyasingining asosiy vosita/mahsulotlari bo'lgan ijara, murobaha (muddatli to'lov asosida oldi-sotdi amaliyoti) hamda mushoraka (biznes hamkorlik/sheriklik)ni qo'llagan holda islom moliyasi tamoyillariga muvofiq faoliyatni boshlash mumkin. Bunday faoliyatni boshlashga huquqiy asos sifatida "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5583-sonli Prezident farmoni xizmat qilishi mumkin [17].

Shuningdek, O'zbekistonda islom moliyasini rivojlanishi uchun ushbu tadqiqot ishimizni olib borish jarayonida quyidagi tavsiyalarini berishimiz mumkin:

1.O'zbekiston aholisining asosiy qismi muslimmonlar ekanligini inobatga olib, mamlakat hukumati qonunchilik tizimida zarur o'zgarishlarni amalga oshirishni boshlashi va islomiy moliya sanoatining to'g'ri joriy etilishi va rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan huquqiy to'siqlarni olib tashlashi kerak. Ushbu harakat uchun u islomiy moliya xizmatlarni joriy etish milliy konsepsiyanini qabul qilishi kerak.

2.Islom moliyasi va bank ishi sohasidagi tadqiqotlarni rag'batlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Negaki, mamlakatda islom bank ishi va moliya qonunchiligi sohasidagi tadqiqotlar juda kam bo'lib, universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy xodimlarini islom moliyasi va bank ishi sohasida tadqiqot olib borishlarini rag'batlantirish kerak.

3.Shuningdek, aholining islom moliyasi tushunchasi haqida xabardorligini oshirib borish lozim, negaki, mamlakatda islom moliyasi qonunchiligi joriy etilgandan so'ng, oddiy fuqarolar tomonidan sohani tezroq qabul qilishga yordam berishi mumkin. Buning uchun esa, turli ommaviy axborot vositalarida ommaviy nutqlar, seminarlar, konferensiyalar, maqolalar va dasturlar orqali bilimlarni tarqatishning turli vositalari bilan aholining islom moliyasi to'g'risidagi xabardorligini oshirib borish lozim.

#### **References:**

1. Islamic corporation for the development of the private sector-refinitiv. "Islamic finance development report 2022  
2.http://uz.a/oz/politics/
3. Muhammad Ayub (2007) "Understanding islamic finance". John Wiley & Sons, ltd, the atrium, southern gate, chichester, west sussex po19 8 sq, england, 24.
4. Hans Visser. Islamic Finance: Principles and Practice. – Edward Elgar, Cheltenham, UK • Northampton, MA, USA, - 2009. 184 p.;
5. Р.И.Беккин. Исламская экономическая модель и современность. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд. дом Марджани, 2010. – 367 с.
6. Антропов В.В. Исламские финанссы в глобальной экономике: современные тенденции и перспективы. Причины появления исламских финансов // Экономический журнал. 2017. №48.с. 57-77;
7. Rukhiddin Zayniddinov. An empirical investigation of the relationship between Islamic finance, FDI, and economic development in Malaysia. Conference: International scientific-practical conference titled ISLAMIC INVESTMENT PRODUCTS: CHARACTERISTICS AND DEVELOPMENT PROSPECTS. Tashkent State Law University, May 31, 2023; [https://www.researchgate.net/publication/371834425\\_An\\_empirical\\_investigation\\_of\\_the\\_relationship\\_between\\_Islamic\\_finance\\_FDI\\_and\\_economic\\_development\\_in\\_Malaysia](https://www.researchgate.net/publication/371834425_An_empirical_investigation_of_the_relationship_between_Islamic_finance_FDI_and_economic_development_in_Malaysia)
8. Gulbakhor Irgasheva. Comparative analysis of ijara (islamic leasing) and traditional. March 2024, iqtisodiy taraqqiyot va tahlil (ii son - fevral,:):113-122 license cc by 4.0.[https://www.researchgate.net/publication/378942677\\_comparative\\_analysis\\_of\\_ijara\\_islamic\\_leasing\\_and\\_traditional\\_leasing](https://www.researchgate.net/publication/378942677_comparative_analysis_of_ijara_islamic_leasing_and_traditional_leasing). DOI: 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss2-pp113-122
9. <https://www.google.com/search?hl=ru&q=permanent+population> (statistics agency under the president of the republic of uzbekistan, 2024) accessed 16 april 2024
10. United States department of state, '2021 report on international religious freedom: Uzbekistan' (us department of state, 2 june 2022), <https://www.state.gov/reports/2021-report-on-international-religious-freedom/uzbekistan> accessed 31 march 2023.
11. Gn Khaki and Bilal Ahmad Malik, 'Islamic banking and finance in post-soviet Central Asia with special reference to Kazakhstan' (2014) 4(2) International journal of excellence in islamic banking and finance 1, doi:10.12816/0010779.
12. <https://kun.uz/48512875#:~:text=%d0%>
13. Khusan Khasanov, 'Prospects for the development of islamic finance in the republic of uzbekistan: presentation' (round table meeting on prospects of development of islamic finance in uzbekistan, international islamic academy of uzbekistan, tashkent, 11 september 2019) doi:10.13140/rgr.2.2.16580.58247.

---

*Maxsus son 2024*

14. <https://kun.uz/48512875#:~:text=%d0%>
15. [https://tfi.uz/ru/news/islom\\_taraqqiyot\\_banki\\_va\\_ozbekiston\\_ortasidagi\\_iqtisodiy\\_hamkorlikning\\_yangi\\_qirralari](https://tfi.uz/ru/news/islom_taraqqiyot_banki_va_ozbekiston_ortasidagi_iqtisodiy_hamkorlikning_yangi_qirralari)
16. Mirziyoyev, 'President Shavkat Mirziyoyev's address to the Oliy Majlis' (President of the Republic of Uzbekistan, 29 december 2020) accessed 31 march 2023.
17. Jahongir Imomnazarov , Ўзбекистонда ислом банк-молия тизимини татбик этишнинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий аҳамияти , "ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023-yil 25-iyunda Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy kengashi tomonidan nashrnga tavsiya qilingan.
18. Баратова , Д. (2024). Ҳаёт сугуртасининг аҳоли ижтимоий химоясини таъминлашдаги ўрни. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 14–16. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/111..>